

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 332.1 : 336.14 : 330.342 (575.1)**

QOBULOV XOTAMJON ABDUKARIMOVICH

**HUDUD DAROMAD SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH
METODOLOGIYASI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYASI

Toshkent shahri – 2026-yil

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab globallashuv jarayonlari va geosiyosiy ziddiyatlarning keskinlashuvi sharoitida davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq safarbar etish global kun tartibidagi eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi"da belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), xususan, 8-maqsad (Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish) hamda 11-maqsad (Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari) bevosita hududlarning moliyaviy o'zini-o'zi ta'minlash darajasini oshirishni taqozo etadi"¹. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki kabi nufuzli tashkilotlarning hisobotlarida ta'kidlanganidek, "Fiskal nomarkazlashuv jarayonlarini jadallashtirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlamasdan turib, inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishib bo'lmaydi"². Hozirgi davrda xalqaro amaliyot hududlarning moliyaviy salohiyatini rivojlantirishni iqtisodiy resurslarni taqsimlash vositasi sifatida emas, balki hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida talqin etmoqda.

Jahon miqyosida hududlarning daromad salohiyatini shakllantirish va uni boshqarish metodologiyasi bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida mahalliy byudjetlar daromad bazasining beqarorligi va markazlashgan fiskal tizimga qaramlik darajasining yuqoriligi ilmiy-metodologik jihatdan to'liq yechimini topmagan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, hududlarning moliyaviy rivojlanishini ta'minlash jarayonida moliyaviy resurslarni prognozlashning gnoseologik asoslarini tizimli tahlil qilish, soliq bazasini kengaytirishga xizmat

¹ United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1. New York, 2015. – 35 p.

² International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Helping People Bounce Back. Washington, DC, October 2023. – 102 p.; World Bank. World Development Report 2024: Finance for an Equitable Recovery. Washington, DC: World Bank, 2024. – 256 p.